

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA USTUVOR VAZIFALARIMIZ

Elmurzayeva Nigora

Yangihayot tumani

336-umumiy o`rta ta`lim maktabi

Kadrlar bo`yicha menedjeri

So`ngi yillarda ta`limni isloh etishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor kechiktirib bo`lmas masalasi bu albatta malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir.

Bu borada davlatimiz rahbarining shaxsan o`zlari tomonidan “Yangi O`zbekiston”ning tom ma`nodagi yangicha tafakkurdagi yoshlarini tarbiyalashga qaratilgan bir qator normativ asoslari shakllantirildi. Xo`sh malakali kadrning bugungi kun ijtimoiy qiyofasi qanday, raqobatbardoshlik me`zoni nimalar bilan o`lchanadi?

Malakali kadr bu hozirgi zamon talablari asosida o`z kasbiy kompetentligi, noodatiy vaziyat va muammolarga echim bera oladigan, kreativ fikrlash bilan birga ma`naviy-milliy tamoyillarga mos kadr bo`lishi lozim. Malakali kadrlar salohiyatini baholash bir qator mezonlarga asoslanadi, jumladan, kasbiy ko`nikma va bilim, ish tajribasi, ta`lim, muloqot qobiliyatlari, erishgan yutuqlari, til bilish darajasi, xorijda ta`lim olganligi, xalqaro sertifikatlariga egaligi, ilmiy unvon va darajasi, shuningdek, mehnat faoliyatida erishgan yutuqlari ham asos bo`ladi.

Bundan tashqari, hozir ko`pgina vazirlik va idoralarda, hatto aksiyadorlik jamiyatlarida, qo`shma korxonalarda ham kadrlarni faoliyat samaradorligini baholashda KPI (Key Performance Indicators) eng muhim samaradorlik ko`rsatkichlari tizimi yo`lga qo`yilgan. Ma`lumki, har bir tashkilot, idora samaradorlikka erishishda inson resurslaridan yetarli darajada foydalanishni maqsad qiladi. Oliy ta`lim ikki bosqichli tizmda kadrlar tayyorlaydi. Xususan, magistratura bosqichi malakali kadr tayyorlashda egallagan mutaxassisligida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini olib olib borishda muhim bosqich hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan biri 2021 yilda Mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash vazirligi tavsiyanomalari asosida 2 ming nafar ehtiyojmand oilalar qizlari qo`shimcha grant asosida talabalikka qabul qilindi. 2020 yilgi qabulda bunday xotin-qizlar uchun 940 ta grant o`rni ajratilgandi.

2026 yilda xotin-qizlar uchun ajratiladigan grantlar 6 mingga yetkazilishi reja qilingan.

Kuni kecha Prezidentimiz SH.Mirziyoyev “O`zbekiston-2030” taraqqiyot strategiyasi “Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham yoshlarga jahon andozalari asosida rivojlangan kasblarga yo`naltirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Unda yoshlarni imkoniytlarini to`g`ri yo`naltirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi farzandlari va imkoniyati cheklangan yoshlarga keng imkoniyat yaratishga qaratilgan qator loyihalarni amaliyotga tadbiq etish haqida alohida to`xtaldi. Inkluziv ta`lim asosida bugun yoshlar nafaqat maxsus maktab-internatlarda, balki sog`lom bolalar bilan birga yonma-yon ta`lim-tarbiya olishni yo`lga qo`yilganligi quvonarli holdir. Zotan imkoniyati cheklangan bo`lishiga qaramay o`qish va tadqiqotchilikga ishtiyoqi baland talabar yonlaridagi sog`lom tengdoshlari uchun motivatoridir.



Oliy ta’lim tizimida malakali mutaxassislar yetishtirish maqsadida, magistraturaga kirish imtihonlari avvalida, til sertifikatlarining bo‘lishi, ilmiy faoliyatni chet davlatlarda davom ettirishga imkoniyat yaratadi. Yana bir katta imkoniyatlar qatori magistraturaga kirish imtihonlarida imtiyozga ega talabalar ham mavjud bo‘lib, ularning sarasiga: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari (Beruniy, ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Imom al-Buxoriy, Islom Karimov) sovrindorlari; Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari; "Mard o‘g‘lon" davlat mukofoti sohiblari kiradi Magistralar orasida shunday nomli davlat stipendiyasi sohibalari ham bor.

Xulosa qilib aytganda bugun malakali kadrlar tayyorlashda ishlab chiqarish va fan integratsiyasi asosida olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Oliy maqsadimizga yetishish yo‘lida, har bir kadr ilmiy faoliyatini davom ettirishi, davlatimizda yaratilgan imtiyozlardan unumli foydalana olishi muhimdir.